



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

QASHQADARYO VILOYATIDA MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGI RIVOJI: FERMER XO‘JALIKLARI VA AGRAR ISLOHOTLAR TAHLILI

Qodirov Islom Ergash o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqola Qashqadaryo viloyatida mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligi, xususan fermer va dehqon xo‘jaliklarining rivojlanishi, moliyaviy-xo‘jalik faoliyati, agrar islohotlar va yuzaga kelgan tizimli muammolarni tahlil qiladi. Tadqiqot viloyat va tuman kesimida ishlab chiqarish jarayonlari, yer taqsimoti, resurslardan foydalanish va tashkiliy jihatlarni o‘rganishga qaratilgan. Olingan natijalar hududiy qishloq xo‘jaligi tajribasini baholash va samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo viloyati, qishloq xo‘jaligi, fermer xo‘jaligi, agrar islohotlar, moliyaviy-xo‘jalik faoliyati.

РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА КАШКАДАРЬНСКОЙ ОБЛАСТИ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ: АНАЛИЗ ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ И АГРАРНЫХ РЕФОРМ

Кодиров Ислон Эргаш угли

Каршинский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В статье проводится анализ развития сельского хозяйства Кашкадарьинской области в годы независимости, с акцентом на деятельность фермерских и крестьянских хозяйств, финансово-хозяйственную деятельность, аграрные реформы и системные проблемы. Исследование охватывает производственные процессы, распределение земли, использование ресурсов и организационные аспекты на региональном и районном уровнях. Полученные результаты позволяют оценить региональный опыт и повысить эффективность сельского хозяйства.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, сельское хозяйство, фермерское хозяйство, аграрные реформы, финансово-хозяйственная деятельность.

AGRICULTURAL DEVELOPMENT IN KASHKADARYA REGION DURING THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE: AN ANALYSIS OF FARMING ENTERPRISES AND AGRARIAN REFORMS

Qodirov Islom Ergash o‘g‘li

Karshi State University, Doctoral Researcher

Abstract

This article analyzes the development of agriculture in the Kashkadarya region during the years of independence, focusing on the activities of farmers and peasant farms, financial and economic performance, agrarian reforms, and systemic challenges. The study examines production processes, land allocation, resource utilization, and organizational aspects at the regional and district level. The results provide insights for evaluating regional agricultural experience and improving efficiency.

Keywords: Kashkadarya region, agriculture, farmer farm, agrarian reforms, financial-economic activity.

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining poydevorini tashkil etuvchi asosiy sohalardan biridir. Mustaqillik yillarida mamlakatda amalga oshirilgan agrar islohotlar qishloq xo‘jaligi sohasi tuzilishi va ishlab chiqarish tizimida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati tabiiy-iqlim sharoiti, yer resurslari va aholining qishloq xo‘jaligiga jalb qilinishi jihatidan strategik ahamiyat kasb etdi.

Fermer xo‘jaliklari, shirkatlar va dehqon xo‘jaliklarining shakllanishi, mulk shaklini o‘zgartirish hamda moliyaviy-tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi hududiy qishloq xo‘jaligi tizimining yangi bosqichga o‘tishini belgiladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xomashyo sifati va iqtisodiy rentabellikni ta‘minlash dolzarb ilmiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ushbu maqola Qashqadaryo viloyatida mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligi, xususan, fermer va dehqon xo‘jaliklarining rivojlanishi, moliyaviy-xo‘jalik faoliyati, agrar islohotlar va yuzaga kelgan tizimli

muammolarni ilmiy tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi viloyat qishloq xo'jaligi tajribasini tarixiy va hududiy nuqtai nazardan o'rganish, amaliy va strategik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI: O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar asosan tarixiy rivojlanish, agrar siyosatning shakllanishi hamda hududiy iqtisodiyot masalalarini yoritishga qaratilgan. Shu bilan birga, viloyat miqyosida fermer xo'jaliklarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, ishlab chiqarish samaradorligi va hududiy o'zgarishlar yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot manbalari sifatida arxiv hujjatlari, mazkur muammo doirasida bajarilgan ilmiy ishlanmalar va qonun hujjatlari qo'llanilgan bo'lib, ular viloyatdagi agrar islohotlar, yer taqsimoti va mulk shaklini o'zgartirish jarayonlari hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining amaliy natijalari haqida qimmatli ma'lumot beradi. Natijada, ushbu tadqiqot mavzuning ilmiy yangiligini ta'minlaydi, chunki u viloyat fermer xo'jaliklarining faoliyati va hududiy qishloq xo'jaligi tajribasini ilmiy asosda baholash imkonini beradi hamda agrar islohotlarning amaliy natijalari va samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Tadqiqotda Qashqadaryo viloyatidagi fermer xo'jaliklarining faoliyati, moliyaviy-xo'jalik tizimi va agrar islohotlar doirasida yuzaga kelgan o'zgarishlar tarixiy, tizimli va izchillik yondashuvlari asosida tahlil qilindi. Ushbu yondashuvlar viloyat arxiv hujjatlari, soha bo'yicha ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar hamda qonuniy hujjatlar asosida tahlil qilindi.

Ushbu metod yordamida viloyat va tumanlar kesimida fermer xo'jaliklarining faoliyati, moliyaviy va ishlab chiqarish tizimidagi o'zgarishlar, shuningdek, agrar islohotlarning real natijalari ilmiy asosda aniqlanib, tizimli kamchiliklar va samaradorlik masalalari mantiqan baholandi. Shu bilan birga, yer resurslarini boshqarish, shartnomaviy majburiyatlarni bajarish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bilan bog'liq muammolar tadqiqotning markaziy yo'nalishini tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR: Mustaqillikning ilk yillari O'zbekiston Respublikasi va uning yirik agrar-iqtisodiy markazlaridan biri hisoblanadigan Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi tizimida o'zgarishlar davri sifatida e'tibordir. Bu davrda Respublika iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan agrar sohani rivojlantirish, yerga egalik qilishning yangi shakllarini amaliyotga tatbiq qilish, eng avvalo, fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil qilish jarayonlari keng rag'batlantirib borildi. Bu borada 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan "Yer to'g'risida"gi va 1991-yil 19-noyabrda "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari asosiy ahamiyatga ega bo'ldi. 1990-yillarning boshida mamlakat aholisi ehtiyoji uchun kerak bo'lgan bug'doyning 82 foizi, chorva mahsulotlarining yarmidan ko'prog'i import tarzida Respublika hududiga keltirilganini aytib o'tish zarur [2].

Mazkur sharoitda fermer xo'jaliklarini shakllantirish va mustaqil ishlab chiqaruvchilar qatlamini yaratish agrar islohotlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash hamda davlat yo'li bilan ishbilarmonlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash haqida"gi [3] 1991-yil 29-noyabrda Farmoniga muvofiq, 1992-yilda viloyatda 49 ta fermer xo'jaligi tashkil qilindi, ularning 42 tasi chorvachilik, 7 tasi dehqonchilik yo'nalishida faoliyat yuritdi. Ushbu xo'jaliklar qishloq xo'jaligi mahsulotlarining turli hajmlarini ishlab chiqardi. Jumladan, 1993-yilda ular tomonidan 12,7 tonna go'sht, 306 tonna sut, 41 tonna don, 140 tonna sabzavot, 20 tonna poliz mahsulotlari, 23 tonna uzum va 369 tonna yem-xashak yetishtirildi [4].

1993–1994-yillarda 1756 ta fermer xo'jaligi yangidan vujudga keltirilgan bo'lsa, 1995-yilga kelib dehqon va fermer xo'jaliklari soni 2,5 mingga yetdi va ularga 24 ming gektar yer ajratildi [5]. Mustaqil fermerlar 416 taga yetdi va davlat bilan to'g'ridan to'g'ri aloqada bo'lib, mahsulot sotish va huquqiy imtiyozlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, iqtisodiy va kadrlar masalalari bo'yicha bir qator muammolar saqlanib qoldi.

Bu davrda davlat xo'jaliklarida xususiylashtirish jarayoni faollashdi. 1997-yilda 44 ta xo'jalikdan 34 tasida mulk shakli o'zgartirildi, ularning 29 tasi paychilik jamiyatlariga, 4 tasi fermer xo'jaliklari birlashmasiga aylantirildi, 1 tasi esa agrofirma usulida faoliyat yuritishni boshladi. Bu o'zgarishlar rentabellik darajasining sezilarli oshishiga va pay a'zolariga dividendlar taqsimlanishiga olib keldi [6].

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning ijtimoiy tarkibida nodavlat sektorning ulushi oshganligini ko'rishimiz mumkin. 1997-yilda paxta, g'alla, meva-sabzavot, poliz kabi asosiy tarmoq ekinlarining 98 foizi davlatga qarashli bo'lmagan sektorlarda ishlab chiqarildi. Bu holat davlat xo'jaliklaridan jamoa, ijara va fermer xo'jaliklariga bosqichma-bosqich o'tish jarayonining amaliy samarasini ko'rsatadi. Mazkur davrda 1374 ta jamoa xo'jaligi, 99 ta ijara xo'jaligi, 51 ta aksiyadorlik

jamiyati, 20 mingdan ortiq mustaqil fermer xo'jaliklari, 526 ta shaxsiy chorvachilik fermasi hamda 3 millionga yaqin shaxsiy tomorqa xo'jaliklari faoliyat yuritgan [1]. Bu ko'rsatkichlar qishloqda ko'p ukladli iqtisodiyot shakllana boshlaganini anglatadi.

1997-yil o'rtalariga kelib, paxta va bug'doydan tashqari boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga davlat buyurtmasi bekor qilindi. Bu qadam ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish va bozor mexanizmlarini joriy etishda muhim bosqich bo'ldi.

1998-yilda qabul qilingan Yer kodeksi agrar islohotlarning huquqiy asosini yanada mustahkamladi. Unda qishloq xo'jaligi yerlariga davlat mulk huquqi saqlab qolinganda, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga egalik qilish va foydalanish huquqlari, yer ijarasi tartibi, yerdan foydalanganlik uchun to'lov mexanizmlari hamda yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha javobgarlik aniq belgilandi [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi sohasida mustaqillik yillarida chuqur tarkibiy o'zgarishlar va bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni kuzatildi. Mulkchilik shakllarining diversifikatsiyasi, fermer xo'jaliklarining shakllanishi va yer munosabatlarining huquqiy jihatdan tartibga solinishi natijasida agrar sohada ko'p ukladli iqtisodiy tizim qaror topdi. Davlat buyurtmalarining qisqartirilishi va bozor mexanizmlarining joriy etilishi ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy mustaqilligini kengaytirib, manfaatdorlik omilini kuchaytirdi. Shu bilan birga, o'tish davriga xos bo'lgan tashkiliy-iqtisodiy muammolar, kadrlar salohiyatining yetarli darajada shakllanmagani hamda shartnomaviy munosabatlardagi kamchiliklar agrar islohotlar samaradorligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Bu holat agrar transformatsiya jarayoni nafaqat huquqiy-me'yoriy o'zgarishlarni, balki boshqaruv, iqtisodiy rag'bat va institutsional mexanizmlarni izchil takomillashtirishni ham talab etganini ko'rsatadi. Shu asosda kelgusida quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq: agrar boshqaruv tizimini raqamlashtirish va yer hamda ishlab chiqarish resurslari monitoringini kuchaytirish; fermer xo'jaliklari o'rtasida ilg'or tajriba almashish mexanizmlarini kengaytirish; agrar soha uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish; yer va mulk munosabatlarini shaffof va samarali boshqarishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni yanada mustahkamlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. Toshkent: O'zbekiston, 1998. B. 7.
2. Abdullayev B., Pozilov B. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan agrar islohotlar // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash hamda davlat yo'li bilan ishbilarmonlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash haqida"gi PF-295-son (1991-yil 29-noyabr) Farmoni.
4. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi. 860-fond, 1-ro'yxat, 14-yig'ma jild, 91-varaq.
5. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi. 829-fond, 1-ro'yxat, 22-yig'ma jild, 15-varaq.
6. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi. 723-fond, 1-ro'yxat, 1-jild, 138-varaq.
7. Nurmatov N. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan asosiy islohotlarning chorvachilik tarmog'i rivojlanishiga ta'sirining asosiy xususiyatlari // 2024. № 2 (117)-1.